

## O‘TKIR HOSHIMOVNING “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ASARIDA MAKTUB JANRNING O‘RNI

Ashuraliyeva Gulira'no Burxonjon qizi

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19648061>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” romani misolida urush mavzusining inson ruhiyatiga ta’siri, qahramon psixologiyasi va badiiy ifoda vositalari ilmiy tahlil qilinadi. Asarda bosh qahramon Rustam kundaliklari orqali uning ichki kechinmalari, ruhiy o‘zgarishlari hamda hayotiy sinovlar jarayonida shakllanishi ochib beriladi.

Tadqiqotda kundalik janrining asar kompozitsiyasidagi o‘rni, uning g‘oyaviy-badiiy ahamiyati hamda obrazlar tizimi tahlil etiladi. Natijada yozuvchining inson psixologiyasini chuqur tasvirlashdagi badiiy mahorati asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** urush mavzusi, ruhiyat, kundalik janri, Rustam obrazi, psixologik tahlil, badiiy mahorat, inson kechinmalari, obrazlar tizimi.

**Аннотация.** В данной статье на примере романа Уткир Хашимова «Жизни, прожитые во сне» рассматриваются вопросы влияния войны на внутренний мир человека, психология героя и художественные средства изображения. Через дневники главного героя Рустама раскрываются его внутренние переживания, духовная эволюция и формирование личности в условиях жизненных испытаний. Особое внимание уделяется роли дневникового жанра в композиции произведения и его идейно-художественному значению. В результате обосновывается художественное мастерство автора в изображении человеческой психологии.

**Ключевые слова:** тема войны, психология, дневник, образ Рустама, художественный анализ, внутренний мир, духовное развитие, система образов.

**Annotation.** This article analyzes the impact of war on human psychology, the protagonist’s inner world, and artistic expression based on the novel “Tushda kechgan umrlar” by O‘tkir Hoshimov. The protagonist Rustam’s diaries serve as a key narrative tool to reveal his emotional experiences, psychological transformations, and personal development under extreme conditions. The study examines the role of the diary genre in the structure of the work and its ideological and artistic significance. The findings highlight the author’s mastery in depicting deep psychological processes and human experiences.

**Keywords:** war theme, psychology, diary genre, Rustam character, literary analysis, inner world, spiritual development, character system.

O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida inson ruhiyati, uning ichki kechinmalari va murakkab hayotiy sinovlar jarayonidagi ma’naviy o‘zgarishlarini badiiy yuksaklikda tasvirlash muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, urush mavzusi bilan bog‘liq asarlar inson qalbining eng nozik qatlamlarini ochib berish, uning sabr-toqati, matonati va insoniy fazilatlarini yoritishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bu jihatdan iste’dodli adib O‘tkir Hoshimov ijodi o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

Adibning “Tushda kechgan umrlar” romani urush fojealari, inson taqdiri va ruhiy kechinmalarini chuqur psixologik tasvir orqali yoritib beruvchi muhim asarlardan biridir. Asarda bosh qahramon Rustam obrazining kundaliklari orqali urushning inson ruhiyatiga ko‘rsatgan ta’siri, uning ichki dunyosidagi o‘zgarishlar, orzu-umidlari va iztiroblari badiiy mahorat bilan aks

ettirilgan. Kundalik shaklidan foydalanish yozuvchiga qahramonning ruhiy holatini yanada chuqurroq ochib berish imkonini yaratgan.

Mazkur ilmiy maqolaning dolzarbligi shundaki, unda asardagi Rustam kundaliklari orqali qahramon psixologiyasi, uning ruhiy-ma'naviy o'sishi hamda urush sharoitida insoniy fazilatlarining namoyon bo'lishi masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, kundalik janrining asar kompozitsiyasidagi o'rni va uning badiiy-g'oyaviy ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi.

Maqolaning maqsadi — asarda Rustam kundaliklari orqali ifodalangan ruhiy kechinmalar, qahramon xarakterining shakllanish jarayoni va yozuvchining badiiy mahoratini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun asardagi kundaliklar tuzilishi, obrazlar tizimi hamda ularning g'oyaviy-badiiy vazifalari o'rganiladi. O'tkir Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" asari o'zining boy syujeti hamda obrazlar xilma-xilligi bilan boshqa ijodkorlar asarlaridan tubdan farq qiladi. Yozuvchi asarni emotsional ta'sir kuchlaridan yana biri sifatida Rustamning kundaliklarida voqeaning ta'sirchan hamda aniq dalil, faktlar bilan sug'orilganida deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi.

Asarda Rustamning kundaligi to'rt qismga bo'linib beriladi. Har bir bo'lim qahramon psixologiyasi va voqealarning jadalligi bilan bir-biridan farq qiladi. Rustamning esdaliklari har biri o'z tarkibida bir nechta sarlavhalar bilan ajratiladi. Qahramonning **birinchi kundaligi** sahifalarida Rustam shunday deydi: ...Kundalik yozish qizlarning ishi. qizlarda bunday "kasal", shoirlar aytmoqchi, "shudring tomchisidek musaffo, qalbiga ilk muhabbat cho'g'i tushgach" paydo bo'ladi.

Yozuvchi ushbu so'zlar orqali Rustamning ayni vaqtdagi ruhiy – emotsional holatini ochib beradi va shu bilan birga qahramonning qalbidagi pokiza muhabbat tuyg'usini ham ta'kidlab o'tadi. Ushbu qismda "May oyining yigirma uchinchi kuni" deb berilgan sarlavha ostida qahramonning voyenkomatdan o'tyotganda ko'rgan odamlari hamda yoshlarning urushga bormaslik uchun qilgan xiylalariga guvoh bo'lamiz. Qahramonimiz esa mard, jasur shu bilan birga vatanparvar obraz sifatida o'quvchi qalbiga kirib boradi. Uning vatan va yurt tinchligi uchun qayg'urishi keyinchalik qahramonga nisbatan achinish hissini ham uyg'otadi. "Iyun oyining boshlari" deb belgilangan sarlavha ostida ijodkor urushning eng yomon kunlarida bir tan-u bir jon bo'lib vatan shu jumladan bir-birlarining tirik qolishi uchun bir oila kabi harakat qilayotgan to'rt azamat vatanparvar shaxslar: Rustam, Hayriddin, Temur, Sasha obrazlarini tasvirlab beradi, "oktyabr oyining oxiri" sarlavhasi bilan boshlanuvchi voqeada urushning eng qora tomonlari - insonlar hayotining harbiy qoidalar oldida zarracha ham qadri yo'q ekanini ko'rishi, iz mumkin.

Bu voqeada Rustam va uning jamoasi o'lim ostida bo'lsalarda harbiy qoida va buyruqlarga bo'ysungan holda ohirgi snaryad portlagandan keyin o'z joylarini tark etadilar. "Fevral oyining o'rtalari" sahifasi ostida ijodkor qo'lga tushgan asirlarning beshavqat qiynoqlarga solinishini "Afg'on" yigiti taqdirida tasvirlab beradi. Ushbu xotira sahifalarida "Bahor – urushni tan olmaydi!" deb ajratilgan qismda yozuvchi har qancha inson yovuzlashmasin, qancha qon to'kilmasin baribir insonlar qalblari yaxshilikka, ezgulikka, go'zallikka intiladi. Bahor hammaga baravar bo'lgani kabi dunyo ham barchaga barobar tegishli degan fikrni olg'a suradi.

Ushbu bo'limda eng samimiy, rahmdil obraz sifatida Hayriddin gavdalanadi. Ushbu qahramonning boshqalardan farqli jihati shundaki u eng og'ir va zabli kunlarda ham insoniy hislarini yo'qotmaydi, ertandi kunga bo'lgan ishonch va umid uning so'nggi nafasigacha tark etmaydi. Temur obrazi baquvvat, chidamli va irodali shaxs sifarida gavdalaniladi. Unda o'ziga xos matonat, jasurlik Rustamga ilhom beradi va oldinga harakat qilishga undaydi.

Ushbu ikki yordamchi obrazlar orqali adib Rustamni urushning qiyinchiliklarida yengilmaslik uchun sabab bo'lgan va yelkadosh bo'lgan haqiqiy do'stlar sifatida sahnaga chiqaradi. Ularning o'limi sabab Rustam chekkan hissiy qiynoqlar orqali yozuvchi obrazni ulg'aytirib boradi. Go'yoki u orzumand boladan teran fikrlovchi erkakka aylanadi.

Rustamning hayotida bo'ladigan o'zgarishlarni O'tkir Hoshimov tush tasvirlari orqali ham tasvirlaydi. Kundalikdagi tushlar asosan Rustamning taqdiriga aloqador bo'lib, voqealar rivojiga keskin burilish yasashga xizmat qiladi.

Asarda "Donolar hayotni kuzturlar jim...yozig'imizni qarangki, hayotni idrok etoshga ham qo'ymadilar" deb Hayriddin tomondan aytilgan so'zlarda ijodkor qahramonlar taqdiriga ko'rsatilgan tashqi ta'sir – urushning ta'sirini yanada go'zal tarzda ochib berdan.

"Tushda kechgan umrlar" asari o'zbek adabiyotida urush mavzusini inson ruhiyati bilan uzviy bog'liq holda yoritib bergan yuksak badiiy asarlardan biri hisoblanadi. Asarda bosh qahramon Rustam kundaliklari orqali insonning urush sharoitidagi ruhiy holati, ichki kechinmalari, orzu-umidlari va fojeali taqdiri chuqur psixologik tasvir asosida ochib berilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kundalik shakli asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini ochishda muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Aynan kundaliklar orqali qahramonning ruhiy o'sishi, uning sodda va orzumand yigitdan hayot sinovlari orqali chiniqqan, teran fikrlovchi shaxsga aylanish jarayoni yaqqol namoyon bo'ladi. Rustam obrazining shakllanishida uning do'stlari, urush voqealari va boshidan kechirgan og'ir sinovlari muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, asarda urushning inson hayotiga, uning ruhiyati va taqdiriga ko'rsatgan salbiy ta'siri badiiy jihatdan ishonarli va ta'sirchan ifodalangan. Yozuvchi urush orqali nafaqat jismoniy yo'qotishlarni, balki insonning ma'naviy dunyosida yuz beradigan chuqur iztiroblarni ham ochib bergan. Kundaliklar esa ushbu jarayonni yanada real, samimiy va hayotiy tarzda tasvirlash imkonini yaratgan.

Demak, asardagi Rustam kundaliklari qahramon ruhiyatini ochishda, uning ichki dunyosini yoritishda hamda asarning umumiy g'oyaviy mazmunini chuqurroq anglashda muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Bu esa yozuvchining yuksak badiiy mahorati va inson psixologiyasini nozik his eta olish qobiliyatidan dalolat beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Baxshilloevna, S. M. (2022). BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYACHI NUTQI NAMUNA-O'RNAK VOSITASI SIFATIDA. *Scientific Impulse*, 1(4), 1288-1292.
2. Baxshilloevna, S. M. (2022). MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR MA'NAVIY DUNYOSINI BOYITISHDA "ALPOMISH" DOSTONING O'RNI. *BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMYIY JURNALI*, 2(2), 146-152.
3. Sharipova, M. (2023). "ALPOMISH" EPOSINING QADIMIYLIGI VA AN'ANAVIYLIGI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
4. Sharipova, M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA SAHNALASHTIRISH, O'YIN FAOLIYATINI TASHKIL ETISH YO'LLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
5. Sharipova, M. (2023). "ALPOMISH" DOSTONI VA BOSHQA JANRLAR MUNOSABATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).

6. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONIDA IFODA ETILGAN MAROSIMLARDA ARXAIK EPOS XUSUSIYATLARI TALQINI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
7. Sharipova, M. (2023). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМДА INNOVATION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
8. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONIDA NIKOH MAROSIMINING ARXAIK-BADIY XUSUSIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
9. Sharipova, M. (2023). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМДА INNOVATION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH FUNKSIYALARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 44(44).
10. SHARIPOVA, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONINI O’ZBEK VARIANTLARI ORASIDAGI MAROSIMLARNING BADIY TALQINI. *Journal of Research and Innovation*, 1(10), 45-52.
11. Baxshilloeyvna, S. M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONIDA SUNNAT TO ‘YI MAROSIMINING BADIY TALQINI. *Научный Фокус*, 1(2), 1091-1095.
12. Baxshilloeyvna, S. M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONINI O ‘RGANISH BOSQICHLARI, METODLARI HAMDA KUYLASH ETOSI. *Научный Фокус*, 1(2), 1096-1100.
13. Sharipova, M. (2023). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TIZIMIDA ETNIK MADANIY TA’LIM VA UNING TARIXIY ILDIZLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 35(35).
14. Sharipova, M. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA IFODALI NUTQNING IJTIMOY-PEDAGOGIK FUNKSIYALARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 32(32).
15. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONIDA NIKOH TO’YI URF-ODATLARI TASVIRI VA TALQINI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).
16. Sharipova, M. (2023). “ALPOMISH” DOSTONIDA NIKOH TO’YI URF-ODATLARI TASVIRI VA TALQINI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 30(30).